Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · "Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317939

3. Dusmuratov R.D. Teoriya Buxgalterskogo ucheta. ToshDAU tahririyat-nashriyot bo'limi, 2012. 340 b.;
4. Dusmuratov R.D. O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» Qonuni (yangi tahriri)ga sharhlar. ToshDAU tahririyat-nashriyot bo'limi, 2019. 60 b.;
5. John Pugh. Acconting Theory. The University of Tasmaniya, 2010. (darslik);
6. Mejdunarodnыe standartы finansovoy otchetnosti, 2011: izdanie na russkom yazыke. M.: Askeri –ASSA, 2011. -998 s.;
7. Misirov K., Kurbanov Z, Abdibayeva T, Ochilov O. Teoriya buxgalterskogo ucheta / Uchebnoe posobie. –T.: «Iqtisod-moliya», 2018. -198 s.;
8. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A., "BOSHQARUV HISOBI". "TAFAKKUR" nashriyoti, 2014 yil;
9. R.D.Dusmuratov, B.Y.Menglikulov. Qishloq xo`jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. –T.: «Fan va texnologiya», 2014. -168 b.;
10. Sotivoldiev A., Sotivoldieva D., Shodibekova D. Buxgalterning izohli lug'ati. T.: «NORMA» – 2010. -278 b.

BUXGALTERIYA BALANSINI TUZISHNING AHAMIYATI.

Qosimova Nilufarxon Chinberdiyevna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Andijon fakulteti,
"Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar"
kafedrasi o'qituvchisi.
Olimov Abduvosid Hayotjon o'g'li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Andijon fakulteti 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Mazkur tezis buxgalteriya balansining kompaniyaning moliyaviy holatini tahlil qilish va boshqarishdagi o'rni, shuningdek, balansni to'g'ri tuzishning ahamiyati haqida batafsil ma'lumot beradi. Balans kompaniya aktivlari, majburiyatlari va kapitalini ko'rsatib, moliyaviy qarorlarni qabul qilishda rahbariyat va investorlar uchun asosiy axborot manbai hisoblanadi. Shuningdek, buxgalteriya balansi kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va uning kredit imkoniyatlarini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о роли баланса в анализе и управлении финансовым положением предприятия, а также о важности правильного составления баланса. Балансовый отчет показывает

Published: 24.05.2025
Cite this article: Qosimova Nilufarxon Chinberdiyevna, Olimov Abduvosid Hayotjon o'g'li (2025). Buxgalteriya balansini tuzishning ahamiyati. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317939
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

активы, обязательства и капитал компании и является основным источником информации для руководства и инвесторов при принятии финансовых решений. Также бухгалтерский баланс служит важным фактором обеспечения финансовой устойчивости предприятия и повышения его кредитных возможностей.

Abstract: This article provides detailed information about the role of the balance sheet in the analysis and management of the company's financial situation, as well as the importance of the correct preparation of the balance sheet. The balance sheet shows the company's assets, liabilities and capital and is the main source of information for management and investors in making financial decisions. Also, the accounting balance serves as an important factor in ensuring the financial stability of the company and increasing its credit capabilities.

Kalit so’zlar: buxgalteriya balansi, moliyaviy tahlil, aktiv, passiv, kompaniya aktivlari va majburiyatlari, moliyaviy holat, kredit imkoniyatlari, rentabellik, likvidlik, moliyaviy shaffoflik.

Ключевые слова: баланс, финансовый анализ, активы, обязательства, активы и пассивы предприятия, финансовое положение, кредитные возможности, рентабельность, ликвидность, финансовая прозрачность.

Key words: balance sheet, financial analysis, assets, liabilities, company assets and liabilities, financial position, credit opportunities, profitability, liquidity, financial transparency.

Kompaniyaning moliyaviy holatini tahlil qilishda eng asosiy vositalardan biri bu buxgalteriya balansi hisoblanadi. Buxgalteriya balansi kompaniyaning aktivlari, passivlari (majburiyatlar va kapitali) to‘g‘risidagi ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi va u kompaniyaning moliyaviy barqarorligi, likvidligi va rentabelligini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Buxgalteriya balansi kompaniya faoliyatining barcha moliyaviy jihatlarini aks ettiradi va shu sababli uning tuzilishi va tahlili nafaqat kompaniya rahbariyati, balki investorlar, kreditorlar, auditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ham juda muhimdir.

Buxgalteriya balansi kompaniyaning moliyaviy holatini ifodalovchi muhim moliyaviy hujjatdir. Ushbu hujjat aktivlar, daromad va xarajat, ishlab chiqarish zaxiralari, majburiyatlar va kapitalning umumiy ko‘rinishini taqdim etib, korxonaning moliyaviy barqarorligini ko‘rsatadi. Buxgalteriya balansining to‘g‘ri va aniq tuzilishi kompaniyaning moliyaviy boshqaruviga ta'sir ko‘rsatadi va qator muhim qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Buxgalteriya balansining ikki asosiy qismdan iborat: aktivlar va passivlar(majburiyatlar va kapital).

Aktivlar — bu kompaniyaning moliyaviy resurslari bo‘lib, ular kompaniya tomonidan ishlab chiqarish, sotish yoki boshqa faoliyatlarni amalga oshirishda foydalanilishi mumkin. Aktivlar kompaniyaning boyliklari va kelajakda foyda keltirishi kutiladigan resurslardir. Aktivlar buxgalteriya balansida kompaniyaning moliyaviy holatini aniqlashda muhim o‘rin tutadi.

Passivlar — bu kompaniyaning moliyaviy majburiyatlari, ya'ni qarzlari va boshqa to‘lanishi kerak bo‘lgan mablag‘laridir. Passivlar kompaniyaning aktivlarini moliyalashtirish uchun qaysi manbalardan foydalanilganini ko‘rsatadi. Passivlar, shu bilan birga, kompaniyaning to‘lov qobiliyatini, qarz olish salohiyatini va moliyaviy barqarorligini baholashda muhim o‘rin tutadi.

Buxgalteriya balansi kompaniyaning moliyaviy holatini aks ettiradi. Har bir kompaniya o‘z faoliyatini davom ettirish uchun resurslarga ega bo‘lishi kerak, bu resurslar aktivlar shaklida ifodalanadi. Aktivlar kompaniyaning ishlab chiqarish vositalari, tovar zaxiralari, naqd pul mablag‘lari va boshqa qiymatga ega bo‘lgan resurslarini o‘z ichiga oladi. Majburiyatlar esa kompaniyaning qarzlari va boshqa moliyaviy majburiyatlarini bildiradi. Majburiyatlar qisqa muddatli va uzoq muddatli bo‘lishi mumkin, va ular kompaniyaning qarzlarining qanchalik boshqarilayotganini ko‘rsatadi. Kapital esa kompaniya egalarining qo‘shgan mablag‘lari va o‘zidan saqlangan foydani o‘z ichiga oladi. Aktivlar va majburiyatlar o‘rtasidagi farq, ya'ni kapital, kompaniyaning moliyaviy holatini aniqlashda asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Kompaniya o‘z resurslarini qanday boshqarayotganini va uning moliyaviy salohiyatini ko‘rsatadi. Agar kompaniyaning aktivlari majburiyatlaridan yuqori bo‘lsa, bu uning moliyaviy mustahkamligini va rivojlanish uchun salohiyatiga ega ekanligini bildiradi.

Malumki, buxgalteriya balansi kompaniyaning to‘lov qobiliyatini baholashda muhim ahamiyatga ega. Kompaniya o‘z majburiyatlarini vaqtida to‘lash uchun zarur resurslarga ega ekanligini bilish juda muhim. Buning uchun qisqa muddatli aktivlar va qisqa muddatli majburiyatlar tahlil qilinadi. Qisqa muddatli aktivlar (masalan, naqd pul, debitorlik qarzlari, zaxiralar) kompaniyaning qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlarini to‘lash imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Agar qisqa muddatli aktivlar qisqa muddatli majburiyatlarni to‘lash uchun yetarli bo‘lsa, kompaniya to‘lov qobiliyatiga ega, deb hisoblanadi. Buxgalteriya balansidagi bu ko‘rsatkichlar, kompaniyaning likvidlik darajasini baholashda yordam beradi.

Shuningdek, balansning uzoq muddatli aktivlar va majburiyatlarga bo‘lgan nisbatlari kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash imkoniyatini ko‘rsatadi. Agar kompaniya uzoq muddatli aktivlarga ega bo‘lsa va uzoq muddatli

majburiyatlari nisbatan past bo‘lsa, bu kompaniyaning moliyaviy mustahkamligini bildiradi.

Yana bir etiborli jihati, buxgalteriya balansi kompaniya rahbariyati va investorlarga moliyaviy qarorlar qabul qilishda katta yordam beradi. Rahbariyat balansni tahlil qilib, kompaniyaning o‘sish strategiyasini, investitsiya rejalari va boshqa moliyaviy harakatlarini rejalashtiradi. Agar kompaniya o‘zining aktivlarini samarali boshqarayotgan bo‘lsa, bu yangi loyihalar uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni olish imkoniyatini oshiradi. Shuningdek, kompaniya o‘z kapitalini qanchalik samarali foydalanganini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichlarni ham tahlil qiladi. Agar kompaniyaning kapitali yuqori bo‘lsa, bu uning moliyaviy mustahkamligini va o‘z loyihalariga investitsiya kiritish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Buxgalteriya balansidagi ma'lumotlar, shuningdek, investorlarga kompaniyaning iqtisodiy holati haqida aniq ma'lumotlar beradi. Bu, o‘z navbatida, investitsiyalarni jalb qilishda, yangi hamkorliklarni o‘rnatishda va kompaniyaning rivojlanishiga turtki berishda yordam beradi.

Izlanishlar shuni ko’rsatadiki, buxgalteriya balansi kompaniyaning rentabellik darajasini baholashda yordam beradi. Rentabellik kompaniyaning o‘z kapitalidan yoki aktivlaridan qancha foyda olishini ko‘rsatadi. Agar kompaniya o‘z aktivlarini samarali boshqarsa, bu uning rentabellik darajasini oshiradi. Balansda aks etgan ma'lumotlar, shu jumladan, o‘z kapitalining rentabelligi, foyda olish imkoniyatlarini oshiradi. Buxgalteriya balansi yordamida kompaniya o‘z aktivlarini qanday boshqarishini, resurslarni qanday taqsimlashini va foyda olish uchun qanday strategiyalarni amalga oshirayotganini ko‘rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, buxgalteriya balansi kompaniyaning moliyaviy holatini aks ettirishda, uning rentabellik va likvidligini baholashda, moliyaviy qarorlar qabul qilishda muhim vosita hisoblanadi. Buxgalteriya balansining tuzilishi kompaniyaning moliyaviy mustahkamligi, o‘sish potentsiali va moliyaviy barqarorligini aniqlashda yordam beradi. Shuningdek, buxgalteriya balansi kompaniya rahbariyatiga samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda va kompaniyaning iqtisodiy holatini yaxshilashda yordam beradi. Buxgalteriya balansi kompaniya faoliyatining muvaffaqiyatini va o‘sishini ta'minlashda markaziy rol o‘ynaydi, shuning uchun uning ahamiyati juda katta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. “Buxgalteriya xisobi to’g’tisida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni.
2. A.A.Karimov, I.K.Ochilov, Z.U,G’aniyev. Buxgalteriya hisobi. (II-qism). (Darslik). –T.: “Nihol print” OK, 2021. - 684b.

3. N.Toshmamatov, I. Ismanov / Darslik: T.: Toshkent “Sano-standart” nashriyoti, 2019. – 560 bet.
4. Buxgalteriya hisobi nazariyasi [Matn]: darslik / B.I.Isroilov, R.O.Xolbekov. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2020. 240 bet.
5. T 71 Buxgalteriya hisobi nazariyasi [Matn] : darslik. T. Toshmamatov. – Toshkent: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2019. – 376 bet.

INVENTARIZATSIYA O‘TKAZISHNING AHAMIYATI VA QOIDALARI.

Qosimova Nilufarxon Chinberdiyevna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Andijon fakulteti,
“Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi.
Olimov Abduvosid Hayotjon o’g’li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Andijon fakulteti 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Mazkur tezisda inventarizatsiyaning ahamiyati, maqsadlari, asosiy tamoyillari va uni o‘tkazishning asosiy qoidalari yoritiladi. Tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va mulk ustidan nazoratni kuchaytirish uchun inventarizatsiya zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, inventarizatsiya jarayonida rioya qilinishi lozim bo‘lgan qoidalar va hujjatlar bo‘yicha aniq tavsiyalar taqdim etiladi. Maqola inventarizatsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish bo‘yicha amaliy yo‘l-yo‘riq bo‘lib, tashkilotlarning moliyaviy faoliyatida ishonchli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Аннотация: В данной дипломной работе описаны значение, цели, основные принципы и основные правила проведения инвентаризации. Обоснована необходимость проведения инвентаризации для обеспечения финансовой устойчивости организаций и усиления контроля за имуществом. Также даются конкретные рекомендации относительно правил и документов, которых следует придерживаться в процессе инвентаризации. Статья представляет собой практическое руководство по успешному осуществлению процесса инвентаризации и служит надежным инструментом в финансовой деятельности организаций.

Abstract: This thesis describes the importance, goals, main principles and basic rules of conducting the inventory. The need for inventory to ensure financial stability of organizations and strengthen control over property is justified. Also, specific recommendations are provided regarding the rules and documents that should be